

JARGON, ARGO VA SLENGLAR HAQIDA

Botirova Ferangiz Baxodirovna

Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:

Toirova Guli Ibragimovna

BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası professori

Filologiya fanlar doktori

Tel.raqam : +998902993417

e-mail : tugulijon@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada chegaralangan leksik birlik hisoblangan jargonlar, argolar va slenglar haqida to'xtalib o'tilgan. Ko'pchilik tilshunos olimlarning jargonlar va argonlarning kelib chiqish tarixi borasidagi turli xil qarashlari, ularning ta'rif va tavsifi keltirilgan. Shuningdek, globallashtirilgan internet asrida zamondoshlarimiz nutqidagi slenglarning muloqotdagi o'rni haqida to'xtalib o'tildi. Slenglar yoshlar nutqida yashin tezligida kelishiga qaramasdan, umri qisqa, qayta qurishga moyil va o'zgaruvchan ekanligi, o'z tillari orqali so'z boyliklarini boyitib borilayotganligi va shu bilan bir qatorda ular kattalardan ajralib turish, biror guruhga mansublikni oshkorona namoyish qilishni istaydigan guruh sifatida keltirilib o'tilgan. Fikr isboti sifatida misollar vositasida dalillangan.

Kalit so'zlar: Jargon, argo, sleng, argotizm, yoshlar tili, sun'iy til, zamonaviy til.

Аннотация: В статье речь идет о жаргонах, сленгах и сленгах, которые считаются ограниченными лексическими единицами. Многие лингвисты имеют разные взгляды на историю происхождения сленгов и аргонов, их определение и описание. Также обсуждалась роль сленга в речи наших современников в общении в эпоху глобализированного Интернета. Несмотря на то, что сленги молниеносно появляются в речи молодых людей, их жизнь коротка, они склонны к перестройке и изменению, они обогащают свой словарный запас за счет своего языка и в то же время представляют собой группу, которая хочет отличаться от взрослых и публично продемонстрировать свою принадлежность к группе, воспитанной. Аргументировано с помощью примеров в качестве доказательства концепции.

Ключевые слова: Жаргоны, аргоны, арготизмы, сленг, язык молодежи, искусственный язык, современные языки.

Annotation: The article focuses on jargons, slangs and slangs, which are considered limited lexical units. Many linguists have different views on the history of the origin of slangs and argons, their definition and description. Also, the role of slangs in the speech of our contemporaries in communication in the age of the globalized Internet was discussed. Despite the fact that slangs appear at lightning speed in the speech of young people, their life is short, they are prone to reconstruction and change, they are enriching their vocabulary through their language, and at the same time, they are a group that wants to distinguish themselves from adults and publicly demonstrate their belonging to a group. brought up. Argued by means of examples as a proof of concept.

Keywords: Slang, argo, slang, argotism, youth language, artificial language, modern language.

Kirish. Mamlakatimizning istiqloлга erishishi, ijtimoiy hayot va ishlab chiqarishning o'sishi, kompyuter texnologiyasining shaxdam qadamlar bilan kirib borishi ko'pgina sohalarda mislsiz darajada yangi so'z va atamalarni yaratdiki, qaysi til va qaysi millat tomonidan yaratilgan bo'lishiga qaramay, milliy til tarkibining boyishiga va rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Ammo nutq madaniyati haqida gap borganda inson nutqida nome'yoriy so'zlarning haddan ortiq qo'llanishi nutqning tozaligiga putur yetkazadi. Nutqning tozaligini

buzuvchi vositalarga esa adabiy tilga xos bo'lmagan: argo va jargonlar hamda slenglar haqida to'xtalib o'tamiz.

Jargon- bu ma'lum bir jamiyat a'zolari uchun tushunarli bo'lgan sinfiy ayirmalikni ko'rsatib beradigan, yuqori tabaqa vakillarining kodlangan muloqot shakli hisoblanadi. Ular eng zich, ixcham joylashgan va barqaror muloqot vositasidir. Jargonlar fikrni boshqalardan maxfiy tutish uchun qo'llaniladi. Jamiyatdagi har bir ijtimoiy bo'linmasining jarangli so'zlari jargon deb atalagan, tushunilmagan, tushuna olmaydigan muloqot tilini tashkil qiladi. Bu so'zlar chegaralangan leksik birliklar qatoriga mansub bo'lib, yuqori sinf vakillari qo'llaniladigan yashirin ma'noli yoki boshqalar hisobiga yashashlik, maishiy buzuvchi yo'lga o'tib olgan, ma'naviy buzuvchi guruhlar tomonidan qo'llaniladigan leksik birlikdir[1].

Argo va jargonlar kelib chiqishi borasida turli xil qarashlar mavjud. Bu qarashlar ba'zan izchil qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi. Ko'pchilik olimlar jargonning kelib chiqish tarixini uzoq o'tmishga bog'lab quyidagicha talqin etishadi. Jargon so'zi qadimda: fors tilidan olingan bo'lib, "циркон"- ya'ni "- цар" -tillo, "гун"- "tus", "rang" degan ma'noni anglatib, shunga o'xshash tillo toshlarni ular "jargon" deb nomlashgan. Har bir "jargon" deb nomlangan qimmatbaho tosh, donishmandlik, qahramonlik, or-nomus ramzi sanalgan. Qadimda bu tosh doimo o'ziga bo'ylik va omadni tortadigan xislati bor deb qaralgan va hamma bu toshga intilgan. Bu qimmatbaho toshga bo'lgan talab ortavergandan so'ng, shu tushdagi toshlarni qalloblik bilan shug'ullanadigan firibgarlar va aynan shu davrda kezib yuruvchi olib- sotarlar nazaridan ham chetda qolmadi. Qalloblik ishlari bilan shug'ullanadigan firibgarlar bu tushdagi toshni tumor sifatida taqa boshlashgan. Mahalliy aholi orasida ko'chib yuruvchi olib-sotarlar esa dastlab mayda-chuyda narsalar: turli rasmlar, arzon kitoblar va shunga o'xshash arzimmas narsalarni sotadigan qilib ko'rsatib turli o'g'riliklarni amalga oshirishar, asosan, mahalliy aholi uchun bebaho bo'lgan jargon toshlarini o'g'irlashardi. Ammo mahalliy hokimiyat va mahalliy aholi bilan ularning orasida nizolar bo'lishi evaziga, ular tushunmasliklari uchun maxfiy tilda so'zlasha boshladilar. O'g'rilar, qimorbozlar, otarchilar tilini aniqlamoqchi bo'lgan olimlar bu til qaysi oilaga kirishini aniqlay olishmagach, ular shug'ullanadigan, kasb-koriga: qimmatbaho jargon toshini o'g'irlaganliklari uchun bu maxfiy tilga "jargon" atamasini qo'llay boshladilar va bugungi kunga qadar guruhlar o'rtasidagi o'zaro qo'llaydigan maxsus tilga nisbatan "jargon" atamasi ishlatilib kelinmoqda.

"Jargon" so'zi eski fransuz tilidagi "jargon" so'zidan olingan bo'lib "qushning sayrashi" ma'nosini anglatgan, eski italyan tilida "gergone" deb yuritilgan bo'lsa, ingliz tilida "slang" atamasi bilan ishlatilgan. Ispan tilida XVI asrda paydo bo'lgan "Jeriganza" so'zidan olingan "jerga" so'zi ishlatilgan va nihoyat portugaliya tilida "girigaza" deb nomlangan. Va yana shuni ta'kidlab o'tish lozimki, noadabiy qatlarga kiruvchi yashirin ma'noli so'zlar XVIII asrga kelib "salon" deb ataladigan zodagonlar doirasida paydo bo'lgan va ko'pincha bu tilning buzilgan leksik birliklari ishlatila boshlangan.

"Argo" fransuz tilidan olingan bo'lib "argot" - "qulflangan", "yopib qo'yilgan" deganidir. Uning etimologik kelib chiqishi - "corparation des jeux"- "qora niyatli kishilar" deb izohlanadi.

Badiiy adabiyot matnida jargonlar asar voqealarini bir qadar ishonchli tasvir qilinishi yoki personajlarning nutqini individuallashtirish uchun xizmat qiladi. Masalan, N. Isoqjonning "Afg'on shamoli" ("Yosh kuch" 2020-yil) romanida jinoyatchilar olami, ularning qiyofalari va kirdikorlarini fosh etishga bag'ishlangan bo'lib, unda uchraydigan metaforik elementlar va jargonlar yuqorida qayd etilgan vazifalarni ado etishga ko'maklashgan.

1. U ko'zlarimga tikilganicha savol berardi. Yuzimda biror o'zgarish yoki tilimdan tutilishimni kutardi. Haqiqatan ham u ortimdan tushgan ayg'oqchi ekanligini, o'zining dastlabki chig'irig'idan o'tkazayotganini payqadim. - 200 danga, - dedim ovozimga sirli tus berib. Go'yoki bu pul men uchun ko'pdek.(55-b)

2. -Bilaman, Efim sen uncha-muncha boylikni nazar - pisand qilmaysan. U yerda qanday xazinani qoldirganingni ham aytmading. Qiymati sen aytgan narxdan ancha balanddir. Bu menga qorong'i. Do'stligimiz hurmati, hayotimni xavfga qo'yib bo'lsa ham yaxshilik qilaman senga. Xazinangni o'zim olib o'taman,-qat'iy ohangda dedi Pyotr.

- O'zing meni masxara qilyapsanmi? Yoshing bir joyga borib qolganda-ya ? Esingni yebsan!

- Chin so'zim !- harbiylarga xos ishonch bilan - dedi general .

- Mabodo Bo'ron uni bu yoqqa olib o'tgan bo'lsa-chi?

- Ko'nglim sezib turibdi, Bo'ron qaytmagan.

- Unda nega kelmayapti?

- Yo'lda biror ko'ngilsizlik bo'lgan bo'lishi mumkin. Axir Afg'onistondagi bugungi vaziyatni o'zing yaxshi bilasan. Tolibonlarning qo'lga tushgan. Lekin ilojini qilib qochdi!

- Unda kutamiz.

-Kutishga toqatim yo'q. Kelgusi hafta jo'nayman.

- Rozilik bermayman!

- Chekist bitta gapiradi!

Skvortsov nima deyishini bilmay jim qoldi...

3. Manas ko'chasida yashovchi Boqijon ismli shaxsning ko'cha eshigini taqillatdi. Uy egasining erta yotish odati yo'q. Biroq el ko'zidan yashirin qiladigan xufiyona ishi bor. Xorijdan keltirilgan varaqalarni tarqatishga tayyorlayotgan edi. Boqijonning ko'ngliga g'ul'g'ula tushdi. Shosha-pisha qog'ozlarni yig'ishtirib tashqariga chiqdi.

- Kim?!- yengil tomoq qirib ovoz berdi Boqijon.

- Musofirman, yo'ldan adashdim!- ayanchli ovozda javob qaytardi Abdug'afforga. Bu do'stlar o'rtasida ishlatiladigan o'ron(parol) edi. Boqijon eshikni ochdi. Abdug'afforni ko'rib uni ichkariga oldi. (71-bet)

4. -Dono maslahatlaringiz bilan kaminaning ko'ngilni xushnud etdingiz, og'a. Men masalaning ikkinchi tomonini o'ylab ko'rmabman. Darhaqiqat, prokurorni jazosiz qoldirsak, boshqa odamlarimizni qamoqqa tiqadi ertaga.

- Barakalla. Bu ishni paysalga solmang! Mening prokurorda adovatim yo'q, uning kimligini bilmayman ham, ammo uch nafar yigitingizning avaxtada yotishi sizdek sher yigitga yarashmaydi.(6-bet 4-kitob)

5. Miryunus birdan olovlanib ketdi va xonimni buralab so'kdi:

- Nima, hali sen menga noz qildingmi, qanjiq? Bit bosib axlat isi ufurib turgan sendek alvastiga ishim tushibdi-yu, firoq qilasan. Koshki sening kimligingni bilmasam. Bir g'ar eding, bir megajin eding. O'tgan-ketganning to'rt tangasini shilish payida ko'chada o'zingdan o'ttiz yosh kichiklarga ham qoshingni uchirib, ko'zingni suzib o'tirarding, keksayganda otinbuvi bo'lib qoldingmi?(29-bet)

6. Gulnoza dodlab yubordi.

- Bobomni urma!

Prokurorning kekirdagiga sim tirab turgan barzangi sherigiga yuzlandi.

- Nafasini o'chir dedim, karmisan!!

Barzangi g'ilayni turtib yubordi va qizning oldiga kelib peshonasiga musht tushirdi. Gulnoza behush yiqildi. Bosqinchi simni qizning ikki qoshi o'rtasiga tiradi(37-bet).

7. - Men uzimning adolat hukmimni o'qidim!- tantanali ovozda dedi mafiya otasi. - Suvdagi jonivorlar uni ijro etishadi. Timsohlar anchadan beri odam go'shtini tatimay qo'yishgandi. Qara, o'lja tashlarmikin, deb bizga tikilib turishibdi. Shu kunga qadar senga o'xshagan oltita xiyonatkor bu maxluqlarning qorniga joy bo'lgan! "Ment"lar ularni bedarak yo'qolganlar ro'yxatiga tirkab qo'ygan. Axir tilsiz jonivorlar o'z og'izlarini inson qoniga bo'yaganlarini kimga ham aytishardi(60-bet).

Argo- bu sun'iy til . Boshqalar tushunmaydigan yoki tushunishi qiyin bo'lgan so'zlar." Argotizmlar yashirin ma'noga ega" deb yozadi tilshunos H. Jamolxonov. Oddiy nutqdan farq qiladigan, o'ziga xos leksik fonetik, grammatik xususiyatga ega bo'lmagan , kichik ijtimoiy yopiq guruhning tili. Ko'p hollarda boshqalar uchun tushunarsiz bo'lgan nutq shaklidir. Argo jargodan qaysidir darajada maxfiy til (aynan chetdagi odamlar tushunmaydigan ma'lum bir guruh tili) ekanligi bilan farqlanadi. Ammo O.S.Axmanovning lug'atida argo jargo bilan bir xil narsa ekanligi, faqat u jargonga nisbat "kamsitish ohangidan holi" deb beriladi.

"Sleng" atamasi leksikologiyada bir muncha kechroq paydo bo'ldi. Sleng deganda odatda og'zaki nutqda voqelangan jamiyat a'zolari uchun norasmiy bo'lgan nutq shakli sifatida qaraladi. Unda ekspressivlik, so'z o'yini va zamonaviy neologizmlar sun'iy shakllantiriladi. Kattalar tushunmaydigan muayyan lug'aviy zaxiraga bo'lgan holda suhbatlashadilar. G'ayritabiiy so'zlar, vulgar, so'kinish so'zlar hamda yoshlar o'zlarining dunyosidan kelib chiqqan holda o'ylab topilgan atamalardan keng foydalaniladi. Slenglarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, boshqa slenglar(jargo va argo) singari umumiy tilning fonetik va grammatik asosidagi leksikadan tuzilgan, og'zaki nutq shakliga ega bo'lgan, ba'zan qo'pol va betakallulfligi bilan farqlanadi. U tez o'zgaruvchanlik, avlodlarning almashinuvi bilan asoslanadi. O. I. Ermakova fikricha, "har qanday nutqiy ekspressiv birlik slengga aylanishi bilan neytrallashadi va o'ziga xos semantikaga ega bo'ladi. "Sleng" so'zining ma'nosi "og'zaki nutq" va "so'zlashuv" tushunchalariga yaqindir. Ularga bir nechta misollar keltirish mumkin:

- 1) limon-million (padpischiklarning miqdoriga nisbatan, bloger nutqida);
- 2) yedirdi- gapni yedirdi, bopladi;
- 3) gazini berdi- adabini berdi;
- 4) bortini berdi- orani ochiq qilish;
- 5) macho - qahramon(qiz bola o'g'il bolani atashi);
- 6) krashbek- qizlar o'zi yoqtirgan yigitlarini chaqirishi(instagram);
- 7) babnik- bir nechta qiz bilan munosabatda bo'lgan yigitga nisbatan;
- 8) rosayam ketvorgan narsa ekanmi?- o'g'il bolalar nutqida qizlarga nisbatan;
- 9) takoy yurarkanmi?- e'tiborni jalb qiladigan darajada kiyinadiganlarga nisbatan;
- 10) ramkadan chiqma- chegaradan chiqma;
- 11) alfons- qizlar haqiga yashaydigan yigitlar;
- 12) gulyat qilmoq- sayr qilish;
- 13) tyolka- yomon qizlarga nisbatan;
- 14) devonasidan- zuridan;
- 15) mullochaday- yuvosh;
- 16) xit qilib yubordi- joniga tekkan;
- 17) bardak- tartibsiz;
- 18) dumaloqcha- aylana vidio(telegram);
- 19) riji bola- sap-sariq odamga nisbatan;
- 20) akaxonni agarotiga bosh suqib qo'yibsan- ishiga aralashmoq;
- 21) yog'li kilent- har doimgi xaridor;
- 22) terpilalik- sotib qo'yish;
- 23) xafani yoqib olish- xafa bo'lish;
- 24) dehqoncha, qishloqcha- oddiy ,sodda tarzda(o'qituvchi nutqidan);
- 25) ko'karmaydi bu odam- rivojlanmaydi;
- 26) bodiringchalar- abituriyentlar(Bayramali Q.);
- 27) baliqboshi- starsa(Eshonqulov);
- 28) praxodga yuringlar - o'rtaroqqa yurish(avtobus haydovchisi nutqidan);
- 29) avtobuschi-1500sòm (yo'lovchiga nisbatan);

30) qosh qorayganga qadar qòl kòtarganlar kòp bòldi . Hamrohim ularga ishora qilib:"Ibroyim arqaga bòsh joy bor yòlni chetidagi bu norizalarni terib ol oxi uvol bòladi"- dedi.(norizalar - yo'lovchilar- taksichi nutqidan).

Shuningdek, yoshlar o'z tillari orqali so'z boyliklarini boyitib boradilar. Har bir avlodning o'z davridagi tili bo'ladi. Zamonaviy slenglar esa jamiyatning barcha sohalarida keng tarqaldi, ommaviy axborot vositalari, filmlar va hatto zamonaviy adabiyotlarda ham uchratish mumkin. Slenglarning kundalik muloqotda asossiz ishlatilishi milliy tilni to'sib qo'yadi. Vaholanki, ularning foydalanishini ham ham ta'qiqlash foydasiz, lekin milliy tilning buzilishiga sabab bo'lmasligi kerak.

Yoshlar tili borasida gap ketganda hozirgi kunga kelib olimlar uni 3asosiy davrga:

1. 20-yillar. Bu davr turli xil urushlar, qon to'kishlar evaziga yetim bolalar, o'smirlar va talabalar nutqida turli xil sun'iy so'zlar bilan boyib ketdi.

2. 50-yillar. Noan'anaviy uslubdagi bashang kiyinuvchi oliftalar davri bo'ldi.

3. 70-80-yillar. Uchinchi davr argo, jargo va slenglarning portlash davri bo'ldi. Bu davrdan to hozirgi kunga qadar uslub, did va mayllar o'zgarishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Negaki, bugungi globallashgan internet asrida barcha rivojlangan mamlakatlar qatori O'zbekistonda ham aholining barcha yosh qatlamlari tomonidan foydalanib kelinayotgan ijtimoiy tarmoqlarda keng foydalanib kelinmoqda. Tashqi til ta'siri natijasida yoshlar nutqida slenglarning ko'payib borishiga zamin yaratdi.

Ammo qaysi davr bo'lmasin yoshlar tili umumiy tilga qaraganda tez evolyutsiyaga uchraydi. Olimlarning takidlashlaricha, yoshlar tili xuddi meteorga o'xshab juda tez harakatlanadi, ular ko'pi bilan 10 yil yashab, portlab yo'qolib ketadi va uning o'rniga yangisi paydo bo'ladi.

Xulosa. Demak, yoshlar o'z tillari orqali so'z boyliklarini boyitib boradilar. Har bir avlodning o'z davridagi tili bo'ladi. Zamonaviy slenglar esa jamiyatning barcha sohalarida keng tarqaldi, ommaviy axborot vositalari, filmlar va hatto zamonaviy adabiyotlarda ham uchratish mumkin. Yoshlar tilining kundalik muloqotda asossiz ishlatilishi milliy tilni to'sib qo'yadi. Vaholanki, ularning foydalanishini ham ham ta'qiqlash foydasiz, lekin milliy tilning buzilishiga sabab bo'lmasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bolikulova H. Italyan tili jargonlari. - Bitiruv malakaviy ishi-B. 57.

2. Нишоннов И. Афгон шамоли - Тошкент: " Ёш куч" , 2020, 1-2-китоб - Б. 430.

3. Нишоннов И. Афгон шамоли - Тошкент: " Тамаддун ", 2015, 4-китоб - Б. 218.

5. Toirova G., Oripova P. Minnatdorchilik nutqiy aktining ijtimoiy -madaniy xususiyatlari, Google schoolor jurnali, 2024. –B. 96-100.

6. Toirova G., Oripova P. Gratitude expresses pragmatic meanings ,Published March 2, 2024, Multidisciplinary and Multidimensional journal , - B.280-284.

7. Xolmonova Z. Tilshunoslik nazariyasi - Toshkent: Spectrum Media Group, 2022, 37-44-b.

Internet manbalar:

1. <http://universalpublishings.com>.

2. in-academy.uz/index.php/yo.yo.